



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 4

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





Ingliz maqollarining lingvokulturologik xususiyatlari

Dilshodbekova Shahinabonu Dilshodbek qizi

Farg'ona davlat universiteti
Chet tillari fakulteti 1-bosqich talabasi

dilshodbekovash@gmail.com

+998 97 028 14 08

Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz maqollarining lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilinib, shu xalqning mentaliteti, madaniyati, qadriyatlari maqollarda aks etganligi ko'rsatib berilgan.

Annotation

This article analyzes the linguocultural characteristics of English proverbs and shows that the mentality, culture and values of this people are reflected in proverbs.

Kalit so'zlar: maqollar, lingvokulturologiya, madaniyat, qadriyatlar, mentalitet.

Keywords: proverbs, linguoculturology, culture, values, mentality.

Maqollar ma'lum bir sharoit taqazosida sinalgan tajribalar orqali kelib chiqadi. Xalq og'zaki ijodining bu namunasi har bir milatning ma'naviy merosida, uning dunyoqarashi, qadriyatlari va hayotiy tajribasini ifodalovchi muhim vosita hisoblanadi. Ingliz xalq maqollari ham nafaqat til boyligini, balki milliy madaniyat, urf-odat va mentalitetni yoritib beradi. Lingvokulturologik yondashuv orqali ingliz xalq maqollarida xalqning tabiatga, vaqtga, mehnatga, erkinlikka bo'lgan qarashlari mujassam ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu mavzuning dolzarbligi ingliz tilini chuqur o'rganishda faqat ligvistik emas, balki madaniy va ijtimoiy jihatlarni ham anglash kerakligini anglatadi.

Ingliz maqollari tilshunoslikning turli sohalarida frazeologik, semantik, pragmatik va stilistik jihatdan o'rganiladi. Ular frazeologiya sohasida frazeologik birlik sifatida qaraladi, ya'ni maqollar so'zlashuv jarayoniga tayyor holatda kirib keladi va ko'pincha tarkibiy qismlari o'zgartirilmaydi. Masalan, "Better late than never" – tuzilishi barqaror, biz uni grammatik jihatdan o'zgartirmaymiz, so'zlashuvda qanday bo'lsa, shundayligicha nutqimizda ishlatamiz. Semantik tahlil shuni ko'rsatadiki, maqollar metafora va metonomiya kabi semantik ko'chishlarga asoslanadi. Bu esa ularning muloqotda ta'sirchanlik xususiyatini oshiradi. Pragmatik jihatdan ingliz maqollari nasihat, ogohlantirish yoki hayotiy tajriba ifodasi sifatida qo'llanib, nutqning kommunikativ samaradorligini oshiradi. Misol sifatida "Honesty is the best policy" maqolini keltirish mumkin. Bu ma'no jihatdan axloqiy qoidani bildiradi. Stilistik tarafdin maqollar nutqqa ifodaviylik bag'ishlaydi. Shuning uchun ular badiiy adabiyot va publitsistik matnlarda keng qo'llaniladi.





Ingliz maqollari xalqning madaniy qadriyatlari, mentalitetini, shuningdek, tabiat, vaqt bilan chambarchas bog'liqligini lingvokulturologik jihatdan ifodalovchi muhim manba hisoblanadi. Avvalo, ushbu xalqning qadriyatlari maqollarda vaqtni qadrlash, mehnatsevarlik va tejamkorlik orqali namoyon bo'ladi. Masalan, "Time is money" maqoli vaqtni samarali sarflash bu xalqda qadimdan shakllanganini ko'rsatadi. Mentalitet nuqtayi nazaridan inglizlar o'z hayotida shaxsiy erkinlikni ulug'laydi. Buni "Every man is the architect of his own fortune" maqolida ham ko'rishimiz mumkin. Tabiat va hasharotlar omili esa ingliz maqollarida alohida o'ringa ega. Ayniqsa, qush timsoli ishtirok etgan maqollarni ko'p uchratishimiz mumkin. Masalan, "Every bird likes its own nest", "Old birds are not to be caught with chaff", "It is an ill bird that fouls its own nest" kabi.

Til birliklarini faqat lingvistik usulda emas, balki ular orqali xalqning madaniy qadriyatlari, urf-odatlarini, mentaliteti va tarixiy tajribasini ochib berish usuli – lingvokulturologik sharh hisoblanadi. Ingliz maqollari grammatik va semantik birlikni aks ettiribgina qolmay, xalqning madaniyati, dunyoqarashini ham o'zida mujassam etadi. Masalan, "An Englishman's home is his castle" maqoli shaxsiy erkinlik va mustaqillik qadriyatining milliy madaniyatidagi o'rnini ko'rsatadi. Lingvokulturologik sharh metodidan foydalanish orqali ingliz maqollaridagi milliy rang-baranglik, ularning xalq hayot tarzi bilan uyg'unligi va madaniy ma'nosi yanada chuqurroq ochib berishini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, ingliz maqollari xalqning qadimiy hayoti, madaniyati, ijtimoiy munosabatlarini o'zida mujassam etgan. Ular orqali inglizlarning vaqtni qadrlash, mehnatsevarlik, sabr-toqat, tejamkorlikka intilish, shaxs erkinligini hurmat qilish va ulug'lash kabi milliy xususiyatlari namoyon bo'ladi. Lingvokulturologik tahlildan shuni ko'rishimiz mumkinki, ingliz maqollarini o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan ham katta ahamiyatga ega ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Uzoqova Y. O'zbek va ingliz xalq maqollarining lingvokulturologik xususiyatlari. "O'zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligi taraqqiyoti, xalqaro hamkorlik masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya.
2. Shoymardanova Y. Proverbs as one of the sources of phraseological derivation. "International Conference on Developments in Education-2024"
3. Shaymonkulovna Sh. Lingua-cultural aspects of proverbs and phraseological units in intercultural communication.

